



**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETIDA  
"SHAHARSOZLIKNING INNOVATSION RIVOJLANTIRISH  
MUAMMOLARI, FAN VA TA'LIM  
ISTIQBOLLARI" MAVZUSIDAGI  
XALQARO ILMIIY-AMALIY  
KONFERENSIYA**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA  
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI VAZIRLIGI

"O'ZSHAHARSOZLIK LITI" DAVLAT UNTAR  
KORXONASI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH  
UNIVERSITETI

## AXBOROT XATI

**Samarqand davlat arxitektura-qurilish  
universitetida 2023-yilning 27-28-aprel**

(27-aprel kuni registratsiya) kunlari  
o'tkaziladigan xalqaro ilmiy va ilmiy-  
amaliy konferensiya tashkiliy qo'mita  
manzili: pochta indeks:140147, Samarqand  
shahri, Lolazor ko'chasi, 70-uy.  
SamDAQU, "Shahar qurilishi va xo'jaligi  
kafedraasi".

### MUROJAAT UCHUN:

Koordinatorlar:

I.S.Shukurov -tel: 998 97 897 67 60;

F.M.Madiyev-tel:+99899622 24 53;

SH.Z.Xaydarov-tel: +998937216570

U.A.Xushvaqto'v Ilmiy va ilmiy-pedagogik  
kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i,  
Tel:998 66 2371847, 998939960004

### DIQQAT:

Maqolalar 2023-yilning 25-apreligacha  
qabul qilinadi. Anjuman uchun maqolalarni  
quyidagi havola orqali yuboring

[E-mail: f.madiyev@samdaq.edu.uz](mailto:f.madiyev@samdaq.edu.uz) yoki  
[shaharqurilishi@mail.ru](mailto:shaharqurilishi@mail.ru)

<https://t.me/Architectshaharsoz>

(+998996222453, +998937216570)

telegram manziliga jo'natilishi tavsiya  
qilinadi. Mualliflik badali har bir maqola  
uchun 100 000 so'm miqdorda belgilangan  
bo'lib (**Google scholar, Zenodo xalqaro  
bazarlarida indekslanadi, DOI raqami  
beriladi**), ushbu to'lov tashkiliy qo'mita  
tomonidan ma'ruza qabul qilinganligi  
to'g'risidagi xabardan keyin amalga  
oshiriladi. To'lovni naqd pul ko'rinishida,  
shuningdek, Payme yoki Click to'lov  
vositalari orqali **9860350102719761**

**FARRUKH MADIEV**

raqamiga yuborish mumkin.

Bir muallifdan 2 ta dan ortiq maqola qabul  
qilinmaydi.

### Ilmiy anjuman quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi:

❖ **1-Sho'ba.** "Shahar hududlarini rivojlantirish arxitektura va shahar muhitining shakllanishi va kompleks rivojlanishi"

❖ **2-Sho'ba.** "Shaharsozlik, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, antropogen va texnosfera xavfsizligini ta'minlashda energiya tejaydigan texnologiyalarni qo'llash"

❖ **3-Sho'ba.** "Shahar transporti va yo'l harakati xavfsizligi muammolari"

❖ **4-Sho'ba.** "Ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar shaharni barqaror rivojlantirish omili. Shaharsozlik va hududiy brendlash. Shahar ommaviy axborot vositasi sifatida."

❖ **5-Sho'ba.** "Raqamli iqtisodiyotda barqaror shaharsozlik rivojlanishini ta'minlash. Tashkiliy tizimlar va texnologik jarayonlarda axborot texnologiyalari va modellashtirish"

❖ **6-Sho'ba.** Shaharlarni rivojlantirishda loyiha-qurilish jarayonlari va ko'chmas mulkni boshqarishning dolzarb muammolari.

### Xalqaro konferensiyaning rasmiy tillari: o'zbek, rus va ingliz.

Ilmiy anjumanda ishtirok etishni xohlovchilar o'rtacha 4-7 sahifa hajmdagi va puxta tahrirlangan materiallarini konferensiya to'plamida chop ettirish uchun 2023- yilning 25-apreligacha [E-mail: f.madiyev@samdaq.edu.uz](mailto:f.madiyev@samdaq.edu.uz) manzilga, elektron ko'rinishda taqdim etishlari lozim. Muddatdan kechikib taqdim etilgan va talablarga javob bermaydigan maqolalar chop qilinmaydi.

### Ma'ruzalarni rasmiylashtirishga doir talablar:

1. Ma'ruzalar matni o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi va materiallar o'rtacha 4-7 betdan iborat bo'lishi lozim. Maqolaning matni **IMRAD** (Introduction, Methods, Results, and Discussion) talablariga mos bo'lishi lozim.

2. Ma'ruzalar matni A4 o'lchamdagi qog'ozda, Microsoft Word (RTF shaklida) dasturida Times New Roman redaktorida yozilgan holda qator oralari 1,5 interval, 14 shriftida, chap, o'ng, yuqori va pastki chegaralari 20 mm bo'lishi lozim. Saxifalar raqamlanmaydi, so'zlar qatorlarga ko'chirilmaydi.

3. Ma'ruzalar matnining birinchi qatorida chap chegaradan katta harflar bilan 1 intervalda ma'ruza nomi, keyingi qatorida kichik harflarda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi, ma'ruza jo'natiladigan sho'ba nomi yoziladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ma'ruza oxirida keltiriladi.

4. Maqolada keltirilgan ma'lumotlar va faktlarning to'g'riligi va aniqligiga shaxsan mualliflar javobgar. Maqola matnida adabiyotlarga iqtiboslar kvadrat qavs [1] shaklida bo'lishi shart. Maqoladagi rasmlar va diagrammalar 10x15sm o'lchamda sifatli bo'lishi shart. Maqola fayli nomi muallifning familiyasi va sho'ba raqami bilan nomlanishi lozim.

5. Bir muallifdan yuborilgan ma'ruzalar matni soni ikkitadan oshmasligi lozim. Ma'ruzalar matni va tezislarda keltirilgan ma'lumotlarga muallifning shaxsan o'zi javobgar hisoblanadi.

6. Tashkiliy qo'mita yuborilgan ma'ruzalar matni va tezislarni taxlil qilish xuquqiga ega. Anjuman mavzusiga mos bo'lmagan, talablarga javob bermaydigan va kechikib jo'natilgan ma'ruzalar matni va tezislari chop etilmaydi, qo'lyozmalari qaytarilmaydi.

7. To'lovni amalga oshirgan maqolalar **Google scholar, Zenodo xalqaro bazarlarida indekslanadi, DOI raqami beriladi**. SamDAQU rasmiy sayti (<https://samdaq.edu.uz/>) da va <https://t.me/shaharsoz>, to'plam shaklida e'lon qilinishi va nashr etilishi rejalashtirilmoqda.

**ANJUMANGA QIZIQISH BILDIRGANLIGINGIZ UCHUN  
MINNATDORMIZ!**